

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 58
Часть-4_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 4



IMPLIKATURA VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA ALOQASI

O'tanova Shaxnozaxon Maxmudovna
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Implikatura tilshunoslikda ham, pragmatikada ham soʻzlovchi soʻzi orqali bildiriladigan bilvosita maʼnoni ifodalash uchun qoʻllaniladigan tushunchadir. Biroq, bu sohalarda implikatsiyalarni tushunish va tahlil qilish usullari boshqacha boʻlishi mumkin.

Kalit soʻzlar: implikatura, kommunikativ strategiya, semantika, tushuncha.

Abstract: Implicature is a concept used in both linguistics and pragmatics to express the indirect meaning conveyed by the speaker's word. However, the ways in which implications are understood and analyzed in these areas may differ.

Keywords: implicature, communicative strategy, semantics, concept.

Аннотация: Импликатура – понятие, используемое как в лингвистике, так и в прагматике для выражения косвенного смысла, передаваемого словом говорящего. Однако способы понимания и анализа последствий в этих областях могут различаться.

Ключевые слова: импликатура, коммуникативная стратегия, семантика, концепт.

Tilda va nutqda ifodalanadigan implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunos va ruhshunoslarni, mantiqchi va faylasuf olimlarni oʻzining murakkab semantik tarkibi, tilda turli vositalar orqali ifodalanishi bilan qiziqtirib kelayotgan murakkab masalalardan biridir. Masalaning nazariy asoslari I. Arnold (1982, 1991), S. Askoldov (1997), A. Bondarko (1978, 1984), E. Kubryakova (1981, 1991, 1996, 2002), A. Maslennikova (1999), Yu.M. Skrebnev (1975, 1985, 1990), Yu. Stepanov (1971, 1997, 2002) va boshqa olimlarning tadqiqotlarida oʻrganilgan. Muammoni oʻrganishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar soni juda koʻp boʻlsa-da, implikatsiya, uning fikrning formal strukturalarida qanday namoyon boʻlishi, bir tilda ifodalanagan implitsitlik turlari va ularning boshqa tillarga tarjima jarayonida qayta tiklanishi masalalarida olimlarning biror bir umumiy fikrga kelmaganligi kuzatilmoqda. Bu holat, tadqiqotchilar oʻrtasida mavzu boʻyicha turli nazariyalar, yondashuvlar va fikrlarning mavjudligini koʻrsatadi, bu esa implikatsiya va uning tildagi koʻrinishlarini yanada chuqurroq oʻrganishga ehtiyoj tugʻdirmoqda. Natijada, tilshunoslik sohasida implikatsiyaning murakkab tabiati va koʻp jihatdan noaniqligini yanada yaxshiroq anglash imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Bu jarayon, til va uning ijtimoiy kontekstdagi roli boʻyicha yangi fikrlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tilshunoslikda uzoq

paytlargacha implitsitlik tushunchasi bir ma'noda qo'llaniladigan fikrning nazarda tutilgan ma'nosi, so'z birikmasi komponentlari orasida mazmuniy bog'liqlikning mavjud emasligi yoki so'zning, vaziyat belgilarining doimiy komponentlar orqali ifodalanmasligi kabi talqinlarda berilgan.

Implikatura tilshunoslikda ham, pragmatikada ham so'zlovchi so'zi orqali bildiriladigan bilvosita ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan tushunchadir. Biroq, bu sohalarda implikatsiyalarni tushunish va tahlil qilish usullari boshqacha bo'lishi mumkin. Tilshunoslikda implikatura to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin kontekst orqali nazarda tutilgan gapdan kelib chiqqan ma'noni bildiradi.¹ Bu ma'no bayonotda qo'llanilgan so'zlar yoki so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi madaniy bilimlar o'rtasidagi mantiqiy munosabatga asoslangan bo'lishi mumkin. Ushbu tushuncha kognitiv tilshunoslikda subfreymlar yoki freymning terminallari, lingvistik semantikada esa ma'noning implikatsionalligi sifatida o'rganiladi.

N. Paninining asosli fikricha, implitsit ifodalanadigan fikr tushunchasi lisoniy birlikning nutq jarayonida qo'shimcha, nazarda tutilgan ma'noda qo'llanilish imkoniyati va undan bu qo'shimcha axborotni ilg'ab olish jarayonini ifodalaydi. Masalan:

“Сегодня утром с Сашей Мальцевым шайбу побросали”. Precedent nom bilan kelayotgan bu jumladagi implitsit axborot, ya'ni qo'shimcha ma'no *“Я знаком с известным хоккеистом”* hisoblanadi.

If someone says “I have two children” Buning ma'nosi shundaki, ularning ko'p yoki kamroq emas, balki ikkita farzandi bor.

If someone says “Do you have the time?” Bu gap esa, kishining soati bor-yo'qligini emas, balki hozirgi vaqtni so'ramoqda. Lisoniy birlikning tashqi shakli bilan ifodalanmagan, ammo bir til doirasida kechadigan verbal muloqot jarayonida anglashiladigan bunday yashirin ma'no axborot ko'plab tadqiqotlarda implikatura atamasi bilan ham yuritilib kelinmoqda² va bu tushunchalarning qo'llanishi borasida aniqlik kiritish zarurati paydo bo'lmoqda.

I. Arnoldning ta'kidlashicha, “implikatsiya, bu – mikrokontekstda yoki muloqot vaziyatida vujudga keladigan va til birligi orqali bilvosita ifodalanmaydigan qo'shimcha ma'nodir. Implikatura esa, ushbu jarayonning nomidir”³.

¹ Muhsinovna R. M., Aminovich U. A. (2022). The implementation of corpus-based techniques to analyze literary works. Open Access Repository, 8(04), - 88-91 p.

² Панина А.Ф. Текст: его единицы и глобальные категории. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – 368 с.

³ Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. –37–47 с.

Ayni paytda, turli tadqiqotlarda implikasiya tushunchasi orqali ko‘plab yangi atamalar va ta’riflar ham vujudga kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, E. Starikova implitsit predikatsiya atamasini qo‘llab, uni nazarda tutilgan yashirin ma’no, shuningdek, mantiqiy bog‘liqliklari tushirib qoldirilgan fikr, vaziyatga bog‘liq ravishda bilvosita ifodalangan qo‘shimcha axborot belgilari, deb ta’riflaydi. V. Kuxarenko “implikasiya” tushunchasini, matn birliklari o‘rtasidagi bilvosita bog‘liqliklar natijasida paydo bo‘ladigan qo‘shimcha ma’no yoki emotsional mazmun sifatida aniqlaydi. U, shuningdek, bu qo‘shimcha mazmunning matnning tag ma’nosi (podtekst) va alohida so‘zlar orqali ifodalanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bunday qo‘shimcha ma’no, umumiy kontekst yoki bitta gap orqali, shuningdek, asarning butun syujetiga asoslanib ham ifodalanishi mumkin. Yashirin tarzda ifodalangan qo‘shimcha ma’no asosan muallifning badiiy mahorati va matnning rasmiylashtirish usullari bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda artikllar, so‘z tartibi, mantiqiy bayon qoidalaridan og‘ishish va so‘zlarning stilistik maqsadlarda qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu omillar, natijada, asarning chuqur ma’nosini anglashga yordam beruvchi kontekstual qatlamni shakllantiradi.⁴

Bu o‘rinda mashhur fransuz yozuvchisi Gi de Mopassan o‘z asarini “Hayot” deb nomlashida qanchalik implitsit axborot jamlanganini tasavvur qilish mumkin.

K. Dolinin esa bunday qo‘shimcha ma’noni umumiy ma’no anglatuvchi fikrning implitsit mazmuni atamasi bilan yuritishni taklif qiladi. Fikrning implitsit mazmuni deyilganida, u birinchi navbatda lisoniy birlikning asosiy ma’nosi orqali ifodalanmagan, ammo nutq jarayonida anglanadigan mazmunni nazarda tutadi⁵.

G. Pochepsovning fikricha, muloqot jarayonida voqelanadigan “nazarda tutilgan fikr” ning lisoniy mazmuni boshqa ma’nodagi axborotga (bizning tushunchamizdagi implikaturaga) aylanadi. “Bunday axborot lisoniy birlikning xususiy mazmuniga emas, undan anglashiladigan, talaffuz qilinmaydigan qo‘shimcha ma’noni ifodalaydi”⁶.

Ayrim mualliflar implikasiya deyilganda, lisoniy birlik mazmunini va eksplikatsiya orqali nazarda tutiladigan axborotni anglashni ham tushunadilar va nutq jarayonida ma’nosi implikasiya qilinadigan lisoniy vositalar sirasiga nutq birliklarini, stilistik vositalarni ham kiritadilar. Natijada implikasiya atamasining “*implikat*”, “*implikatsional*”, “*implikatsionlik*” singari yasama atamalari ham vujudga kelgan. So‘zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi

⁴ Кухаренко В.А. Типы и средства выражения импликации в английской художественной речи (на материале прозы Э.Хемингуэя) // НДВШ. Филол. науки. 1974. – №1. –69–74 с.

⁵ Долинин К.А. ИмPLICITное содержание высказывания // Вопросы языкознания. 1983. – № 6. –37–47 с.

⁶ Почепсов О.Г. Основы прагматического описания предложения.-Киев: Виша школа, 1986. – 75 с.

kognitiv axborot fondagi bilimlar orqali idrok qilinadigan bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko‘plab atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari orasida “implikatsiya”, “implitsit mazmun”, “implitsit ma’no”, “implitsit axborot” tushunchalari ham bor. Lisoniy ongda shakllanadigan bunday birliklar ko‘pincha semantik jihatdan murakkab strukturalar bilan ifodalanadi. Ular, jumladan, nutqdan oldin bildirilgan fikrlar, qo‘shimcha ma’lumotlar, nutq jarayonida anglashiladigan qo‘shimcha ma’nolar, semantik kompressiya va ellipsis, yashirin fikrlar, ikkilamchi ma’nolar, kontekstni kengaytiruvchi va parafrazani talab qiluvchi birliklar, shuningdek, ma’noviy topishmoqlar bilan bog‘liq atamalar yordamida tushuntiriladi⁷. Bu kontekstdagi implikatsiyaning metonimiya, metafora, sinekdoxa kabi stilistik vositalar, realiya, konnotativ va kognitiv ma’no, pragmatik ma’no hamda pretsedent nomlar kabi tushunchalar bilan o‘zaro aloqasi, shuningdek, ularni tarjima jarayonida qayta yaratish, alohida tadqiqot obyekti sifatida e’tiborga olish mumkin. Misol uchun, semantik kompressiya yoki semantik ellipsning implitsitlikni namoyon etuvchi misollariga e’tibor qaratish muhimdir. Bu jarayonlar tilshunoslikda nutqdagi ma’noni aniqroq va chuqurroq tushunishga yordam berishi bilan birga, kommunikativ vaziyatlardagi tilning foydalanishidagi noaniqliklarni tahlil qilishga imkon yaratadi.

– Bugun “Venetsiya”ga borib, bir mazza qilib tushlik qilib kelsak, nima deysan?

– Birgina tushlik qilib kelish uchun Venetsiyaga borish shartmi?

Bu yerda birinchi suhbatdosh o‘z gapida “Venetsiya” restoranini nazarda tutmoqda. Ikkinchi suhbatdosh esa semantik kompressiya qilingan ellipsli implikatsiyani tushunmasdan, Venetsiya mamlakatini nazarda tutmoqda. Demak, implikatsiyani tushunishda kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning fondagi, kognitiv bilimlari hamda pragmatik axborot ishtirok etadi. Yana bir misol:

– Anavi qiz juda ketvorgan ekanmi? – ha, uning eri ham shu fikrda.

Birinchi suhbatdosh gapida qizning jamoliga maftunlik, u bilan tanishish ishtiyoqi pragmatik implikatsiya qilinmoqda va fikr so‘roq formada ifodalanib suhbatdoshning bu fikrga qo‘shilish-qo‘shilmasligini bilish istagi ifodalanmoqda. Ikkinchi suhbatdoshning javob replikasida esa uning fikri to‘g‘ri ekanligi, ammo uning ishtiyoqi befoyda ekanligi, ayolning eri uni juda sevishi tasdiq formada implikatsiya qilinmoqda. Misollardan implitsit axborot muloqot jarayonida tasdiq, so‘roq va inkor formalarda tag ma’no orqali ifodalanishi anglashildi.

V. Moroz, T. Silman, I.Torsuyeva, I.Galperin tadqiqotlarida implitsitlik tushunchasi tag ma’no/podtekst tushunchasi bilan mustahkam aloqada ekanligi

⁷ Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания. 1983. – №4. –83–91 с.

ta'kidlangan. Masalan, kimdir bizdan "Soat necha bo'ldi?!" deya so'ramoqchi bo'lsa, u bunday savolni turli vaziyatda turli xil tag ma'no orqali turli ohangda ifodalashi mumkin. U savol bir paytning o'zida vaqt allamahol bo'lib qolganligi yoki oddiygina soatni necha bo'lganligini bilish istagi singari tag ma'nolarga ega. Demak, tag ma'no (podtekst) deyilganda, fikr matni orqali ifodalanmay, vaziyat orqali ifodalanadigan axborot mazmuni ham tushuniladi. Ko'p hollarda tag ma'no (podtekst) til me'yorlaridan chekinish, so'zni odatdan tashqari vaziyatlarda qo'llash, so'z shaklining u ifodalayotgan ma'noga mos kelmasligi, muallifning yoki asar personajining – gapiruvchi shaxsning pragmatik maqsadiga bog'liq holda hosil qilinadi. U bunday yashirin ma'noli so'zlarni qo'llar ekan, tinglovchiga (kitobxoniga) muayyan darajada pragmatik ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadi. Binobarin, muallifning, gapiruvchining muayyan nutq vaziyatida tinglovchiga (kitobxoniga) muayyan darajada ta'sir o'tkazish maqsadida lisoniy vositalar orqali fikrni implitsit ifodalashi muallif usuli, badiiy mahorati sifatida ham o'rganilishi mumkin.

Shunday qilib, implikatura ya'ni, implitsit ifodalangan fikr deganda, umumiy ma'nodagi referent yoki vaziyatdan farqlanadigan referent mavjudligini, umumiy ma'nodagi propozitsiyaning mavjudligini va xulosaga kelish jarayonini, konkret kontekstual ma'nodan yoki uning lisoniy mazmunidan anglashiladigan ma'noni tushunamiz. Umumiy ma'no esa, bu ikki tarkibiy qismning natijasidir. Bu ikki komponentning jumladagi, umuman, fikrdagi umumiy ma'no bilan bog'liqliklariga ko'ra implikaturaning turlari aniqlanadi. Bu fikrga tayanib, umumkommunikativ va kontekstual implikaturani farqlaymiz. Ular, o'z navbatida, fikrni ifodalashda umumiy ma'no turiga ko'ra, predmetni ifodalovchi, mantiqiy va konvensional fikrlashni aks ettiruvchi kichik guruhlariga taqsimlanadi. Mantiqiy va konvensional implikaturalar, o'z navbatida, ramziy va etiketga doir obrazli implikaturalarga bo'linadi. Ularning mohiyatini anglash, matndagi implikaturani tarjima jarayonida o'girishda muhim rol o'ynaydi. Tildagi implitsitlik masalasi va uning badiiy matni anglashdagi ahamiyati hozirgi pragmatolingvistika va kognitiv tilshunoslikda faoliyat yuritayotgan olimlar uchun eng qiyin va qiziqarli mavzulardan biri hisoblanadi. Muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan bo'lmagan va kitobxon yoki tinglovchining o'z-o'zidan anglashini talab qiladigan yashirin ma'nolar, badiiy asarning emotsional va pragmatik ta'sirini, shuningdek, muallifning badiiy mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, badiiy matni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Badiiy matnda implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari bir asrdan beri nafaqat tilshunoslarni, balki adabiyotshunoslarni, faylasuflarni, ruhshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda. Bu borada ilgari surilgan g'oyalar, konsepsiyalar, yo'nalishlar shunchalik ko'p bo'lishiga qaramasdan hanuzgacha implitsit axborotning mohiyati, uning tinglovchining (o'quvchining) reaksiyasiga bog'liqligi, implitsit

axborotni tushunish mexanizmi borasida xilma-xil bahslar davom etib kelayapti. Bu borada lingvistik, psixologik, psixolingvistik, kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan amalga oshirilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘ziyoq til va nutqdagi implitsitlik muammosi ko‘p aspektli va ko‘p qirrali ekanligidan dalolat beradi.

Til va nutqda implitsitlik muammosi bugungi kunda tilshunoslarni, mantiq va faylasuf olimlarni qiziqtirib kelayotgan, o‘zining murakkab semantik tarkibi bilan, tilda turlicha vositalar bilan, ifodalanishi bilan eng qiziqarli va murakkab muammolardan biridir. Muammoning nazariy asoslari I.V. Arnold, S.A. Askoldov, A.V. Bondarko, E.S. Kubryakova, A.A.Maslennikova, Yu.M. Skrebnev, Yu.S. Stepanov va boshqa ko‘plab boshqa olimlarning tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan.

Lisoniy vositalar orqali ifodalangan axborotning muayyan bir tilning grammatik, sintaktik qurilishiga bog‘liqliligi implitsitlikning grammatik aspektini tashkil qilsa, yashirin ifodalangan ma’noning stilistik, pragmatik, kognitiv aspektlarda qiyoslab o‘rganilishini, uning til va nutq jarayonida qo‘llanilishini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent:Ma’naviyat, 2013.–320 b.
2. Odilova G.K. Glyuttonik diskurs asoslari // Mumtoz So‘z. –Toshkent, 2020.- 5-10 b.
3. Quronov D.X., Habibullayeva F.K. “O‘tkan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar // Adabiy-badiiy, ijtimoiy-publitsistik jurnal - Jahon adabiyoti. – 2018. – 171 b.
4. Raupova L.R. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2012. – 220 b.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI LITSENZIYALASH

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-kurs B patok 2-guruh talabasi*

Ergashaliyeva Sevinch

Ilmiy rahbar Toshkent davlat yuridik universiteti

Kiber huquq kafedrası o'qtuvchisi

Javoxir Eshonqulov

javoxireshonqulov0724@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu tadqiqot raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalashni o'rganishga bag'ishlangan. Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va raqamli transformatsiyalash jarayonlari bilan birga muhim ahamiyatga egadir. Intellektual mulk jumladan, mualliflik huquqi, brendlar, patentlar va tijorat sirlarini himoya qilishda litsenziyalashning o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag'batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun intellektual mulkni samarali litsenziyalash mexanizmlari zarur. Esseda litsenziyalash jarayonida yuzaga keladigan huquqiy muammolar, misol uchun, litsenziya shartnomalarining shaffofligi, huquqiy muvofiqlik va foydalanuvchi huquqlari kabi jihatlarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, raqamli platformalar va xizmatlarda intellektual mulkni himoya qilish uchun zamonaviy strategiyalar, masalan, raqamli litsenziyalash va onlayn mualliflikni boshqarish tizimlari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu anotatsiya, raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqini litsenziyalash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini yoritib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, intellektual mulk, litsenziyalash, patentlar, brendlar, mualliflik huquqi, huquqiy muammolar, innovatsiyalar, raqamli litsenziyalash, raqamli platformalar va boshqalar.

Аннотация: В этом исследовании рассматриваются права интеллектуальной собственности в цифровой экономике, посвящен изучению лицензирования. Интеллектуал в цифровой экономике лицензирование прав собственности, развитие современных технологий и важен наряду с процессами цифровой трансформации. Интеллектуальная собственность, включая авторские права, товарные знаки, патенты и коммерческую тайну, рассматривает роль и важность лицензирования в защите. Сегодняшний продвижение инноваций и конкурентоспособности в цифровой экономике интеллектуальная собственность

для увеличения и обеспечения экономического роста необходимы механизмы лицензирования. Эссе происходит во время процесса лицензирования юридические проблемы, например, лицензионные соглашения внимание к таким аспектам, как прозрачность, соблюдение законодательства и права пользователей точки.

Также защита интеллектуальной собственности в цифровых платформах и сервисах, современные стратегии, например, цифрового лицензирования и онлайн-торговли, приведены сведения о системах управления авторством. Эта аннотация, лицензирование прав интеллектуальной собственности в условиях цифровой экономики особенности процесса и его влияние на экономическое развитие направлено на просвещение.

Ключевые слова: Цифровая экономика, интеллектуальная собственность, лицензирование, патенты, бренды, авторское право, юридические вопросы, инновации, цифровое лицензирование, цифровые платформы и т.д.

Abstract: This study is devoted to the study of intellectual property licensing in the digital economy. Licensing of intellectual property in the digital economy is of great importance, along with the development of modern technologies and the processes of digital transformation. It examines the role and importance of licensing in protecting intellectual property, including copyright, brands, patents and trade secrets. In today's digital economy, effective intellectual property licensing mechanisms are necessary to stimulate innovation, increase competitiveness and ensure economic growth. The essay focuses on legal issues arising in the licensing process, such as the transparency of license agreements, legal compliance and user rights.

It also provides information on modern strategies for protecting intellectual property in digital platforms and services, such as digital licensing and online copyright management systems. This annotation aims to shed light on the specifics of the intellectual property licensing process in the digital economy and its impact on economic development.

Keywords: Digital economy, intellectual property, licensing, patents, brands, copyright, legal issues, innovation, digital licensing, digital platforms, etc.

Kirish

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va internetning tezkor rivojlanishi natijasida, zamonamizda iqtisodiy faoliyatning yangi shakllarini yaratmoqda. Intellektual mulk huquqlari raqamli muhitda muhim ahamiyatga ega hisoblanib, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va innovatsiyalarni himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu esse, raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash jarayonini balki, uning ahamiyatini ham tahlil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 53-moddasida, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. **Intellektual mulk** qonun bilan muhofaza qilinadi va va davlat jamiyatning nadabiy, ilmiy va texnikaveiy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi deb belgilab qo'yilgan.¹

Intellektual Mulk Huquqlari - bu yaratuvchilar va innovatorlar tomonidan yaratilgan g'oyalar, ixtirolar, brendlar, patentlar va ijodiy ishlarni himoya qiluvchi qonuniy huquqlar to'plamidir. Bundan tashqari, intellektual mulk huquqi ijodkorlarga va tadbirkorlarga o'z yaratuvchanliklarini himoya qilish va ulardan iqtisodiy foyda olish imkonini beradi. Bu huquqlar, asosan, quyidagi toifalarga bo'linadi:

1. **Mualliflik huquqlari** – ijodiy asarlarning muallifiga o'zi yaratgan ishlarini nashr qilish va tarqatish huquqini beradi. Ushbu huquq ijodkorning yaratuvchaligini himoya qiladi. Xalqaro darajada mualliflik huquqini himoya qilishda Berne Konvensiyasi muhim rol o'ynaydi.

2. **Patentlar** – ixtirolarni himoya qiladi va ularni tijoratlashtirish imkonini yaratib beradi.

3. **Tovar belgilari** – mahsulotlar va xizmatlarning manbasini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

4. **Sanoat dizayn huquqlari** – mahsulotlarning tashqi ko'rinishini himoya qiladi.²

Raqamli iqtisodiyotda bu huquqlarni himoya qilish, innovatsion muhitni yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu huquqlarni litsenziyalash, yaratuvchilarga va mualliflarga o'z asarlarini tijorat maqsadlarida ishlatish imkonini beradi.

Shuningdek, Intellektual mulk huquqi darsligida Intellektual mulk tushunchasiga tarif berib ketilgan. Intellektual mulk iborasi lotincha “intellect” so'zidan olingan bo'lib aql idrok degan ma'noni anglatadi.³

Fuqarolik kodeksida intellektual faollik natijalariga intellektual huquq tushunchasi 3 tarkibiy qism bilan tavsiflanadi, deyilgan.

1. Mutlaq huquq. Bu mulk huquqi bo'lib, mualliflik huquqi egalarining obyektidan foydalanish, uni tassaruf etish va foydalanishga topshirish, shuningdek uchinchi shaxlarning noqonuniy foydalanishidan qonuniy himoya qilish qobiliyatini nazarda tutadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

² Intellektual mulk huquqi. Darslik.

³ I.Imanov, B.Axmadjonov Intellektual mulk huquqi. Darslik. 7-bet. Toshkent 2010

2. Shaxsiy nomulkiy huquqlar. Ularning o'ziga xos xususiyati ajralmasligidadir, yani hech kim ulardan mahrum etilishi mumkin emas va ularni boshqa odamga berish orqali ularni tark etish mumkin emas.

Muallifning quyidagilar intellektual nomulkiy huquqlari: ismga (yani, o'zingizning haqiqiy ismingiz, taxallusingiz bilan obuna bo'lish yoki ismingizni saqlash qobiliyati); mualliflik uchun (muallif boshqa hech kimni ko'rsatolmaydi); asarning dolzarbligi (muallifning rasmiy roziligisiz o'zgartirishlar kiritish, yangi illustratsiyalardan foydalanishingiz yoki boshqa yo'l bilan tuzatish kiritishingiz mumkin emas); obro'sini himoya qilishi (kiritilgan o'zgartirishlar asar yaratuvchisi haqidagi jamaotchilik fikriga, shu jumladan, uning vafotidan keyingi davrga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak).

3. Boshqa huquqlar. Ba'zi hollarda qonunchilikda intellektual mulk huquqlarini qo'llashning maxsus turlari nazarda tutilgan.⁴

Intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash – bu huquq egasining o'z mulkini boshqa shaxslarga, muayyan shartlar asosida, foydalanish uchun berishi jarayonidir. Litsenziyalash ikki xil bo'lishi mumkin: eksklyuziv va eksklyuziv bo'lmagan litsenziya. Eksklyuziv litsenziya berilgan holda, litsenziya oluvchi birgina shaxs yoki kompaniya tomonidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Eksklyuziv bo'lmagan litsenziya esa, bir nechta litsenziya oluvchilarga berilishi mumkin.

Litsenziyalash jarayoni bir qator bosqichlardan iborat:

1. Mulk huquqini aniqlash – yaratuvchi o'z asarini qaysi huquqlar bilan himoyalanganini tushunishi zarurdir.

2. Litsenziya shartlarini belgilash – foydalanish muddati, moliyaviy shartlar, hududiy cheklovlar va boshqalar.

3. Shartnoma tayyorlash – litsenziya beruvchi va oluvchi o'rtasida rasmiy shartnoma tuziladi.

4. Foydalanish monitoringi – litsenziya oluvchi tomonidan asar foydalanishini nazorat qilib boorish.

Shu bilan birga raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalashning bir nechta afzalliklari mavjud:

a) Innovatsiyalarni rag'batlantirish – litsenziyalash orqali yaratuvchilar o'z asarlaridan moliyaviy foyda olish imkonini topadilar, bu esa yangi g'oyalar va texnologiyalarning rivojlanishi uchun imkon beradi.

b) Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va litsenziyalash jarayoni, iqtisodiy faoliyatni yanada samarali qilishga yordam beradi, bu esa ijtimoiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni yaratib beradi.

⁴ Yakubova Iroda Bahramovna. Xlqari intellektual nulk huquqi. O'quv qo'llanma. 15-16-betllar. Toshkent 2023

c) **Raqobatbardoshlik** – litsenziyalash orqali kompaniyalar o'z mahsulotlarini bozorga tezroq chiqarishlari va raqobatbardosh bo'lishlari mumkin.

d) **Yangi bozorlar yaratish** – innovatsion mahsulotlarni litsenziyalash, yangi bozorlar va xizmatlar yaratishga yordam beradi.

Shu asosda, Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash jarayonida bir qator muammolar vujudga kelishi mumkin:

1. **Qonuniy muammolar** – har bir mamlakatda intellektual mulk huquqlari va litsenziyalash jarayoni turlicha tartibga solinadi, bu esa xalqaro miqyosda muammolarni keltirib chiqarishga asos bo'ladi.

2. **O'ta raqobat** – raqamli muhitda o'zaro raqobat kuchayishi natijasida, litsenziya shartlarini buzish va intellektual mulkni noqonuniy foydalanish holatlari ko'payishi mumkin.

3. **Texnologik o'zgarishlar** – yangi texnologiyalarning tez rivojlanishi, mualliflik huquqlarini himoya qilish va litsenziyalash jarayonlarini qiyinlashtirib boradi. Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash, milliy va xorijiy ega.

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash – innovatsiyalarni himoya qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Litsenziyalash jarayoni, yaratuvchilar uchun moliyaviy foyda olish imkonini berib, iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu jarayonning samaradorligini ta'minlash uchun qonuniy va texnologik muammolarni hal etish zarur. Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va litsenziyalash, kelajakda yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi va jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash, milliy va xorijiy qonunchiliklar o'rtasidagi farqlarni tushunish muhimdir. Quyidagi jihatlar bu jarayonni ta'minlaydi:

Milliy Qonunchilik; birinchidan, litsenziyalash Turi: O'zbekistonda intellektual mulk huquqini litsenziyalashni, asosan, "**Intellektual mulk to'g'risida**"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga soladi. Ushbu qonun intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziyalash va boshqa muhim jihatlarni tartibga soladi. Litsenziya berish uchun shartlar va talablarga muvofiq harakat qilinadi. Shu asosida bu qonunning bir nechta asosiy qismlari mavjud, Ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati: Intellektual mulk huquqlari iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bu orqali tadbirkorlik faollashadi va yangi mahsulotlar paydo bo'ladi.

Xalqaro me'yorlar: IM huquqlari xalqaro miqyosda, masalan, BMTning WIPO tashkiloti orqali himoya qilinadi. Bu, albatta, global savdoda muhim rol o'ynaydi.

Muammolar: Qonunlar ko'pincha tezkor texnologik o'zgarishlarga mos kelmaydi. Internet va raqamli muhitda mualliflik huquqlarini himoya qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tashkiliy va huquqiy mexanizmlar: IM himoyasi uchun davlat organlari, huquqshunoslar va nodavlat tashkilotlari faoliyat yuritadi. Huquqiy mexanizmlar, masalan, sudlar va arbitrajlar, to'g'ri qo'llanilishi muhimdir.

Ikkinchidan, davlat ro'yxati: **“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib tamoillari to'g'risida”gi qonunda** intellektual mulk obektlarini litsenziyalash jarayonini belgilaydi. Shuningdek, litsenziyalash jarayoni ko'pincha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu esa davlatning nazoratini ta'minlaydi. Ushbu qonuning 3-moddasiga alohida etibor beradigan bo'lsak. Litsenziat - faoliyatning litsenziyalanadigan turini yoki uning kechik turini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs,

Litsenziya - jismoniy yoki yuridik shaxsga beriladigan, litsenziya talablari va shartlariga majburiy ravishda rioya etilgan taqdirda faoliyatning litsenziyalanadigan turini yoki uning kichik turini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjatdir,

Litsenziyalash esa - litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish, qabul qilish va ko'rib chiqish, litsenziyani berish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash hamda tugatish, shuningdek litsenziyani bekor qilish, qayta rasmiylashtirish va chaqirib olish jarayoni bilan bi'g'liq tadbirlar majmuidir.⁵

Uchinchidan, himoya davri: Intellektual mulkning himoya davri va litsenziya shartlari aniq belgilangan bo'lib, bu mulk egalari o'z huquqlarini himoya qilishda yordam beradi. Shu asosda **“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonunchilik.** Ushbu qonunda asosan mualliflik huquqlari va ularning litsenziyalash tartibini belgilaydi. Shuningdek, Mualliflik Huquqi va turdosh huquqlarni alohida ko'rib chiqamiz.

1. Tushunchasi: Mualliflik huquqi asarlar yaratilishi bilan avtomatik tarzda muallifga beriladi va u ijodiy asarlarni boshqarish huquqiga ega bo'ladi.

2. Huquq turlari:

Shaxsiy huquqlar: Muallifning asarni ma'lum bir tarzda foydalanish huquqi.

Moliya huquqlari: Asarlarning reproduksiya, tarqatish va ko'rsatish huquqlari.

3. Muddat: Mualliflik huquqi, odatda, muallifning umriga va 70 yilga cho'ziladi, keyin esa asar ommaviy mulkka o'tadi.

4. Himoya mexanizmlari: Mualliflik huquqlarini buzganlik uchun fuqarolik va jinoiy javobgarlik mavjud. Huquqiy himoya, shuningdek, sudlarda ko'rsatiladi.

⁵ “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib tamoillari to'g'risida”gi qonun

Turdosh Huquqlar esa,

1. Tushunchasi: Turdosh huquqlar asarlar yaratuvchilarining huquqlarini himoya qiladi. Bu toifaga ijodkorlar, ijrochilar va ovoz yozish muassasalari kiradi.

2. Turli huquq turlari:

Ijro huquqlari: Musiqa va san'at asarlarini ijro etish huquqi.

Kopirovka huquqlari: Ijro etilgan asarlarning ko'chirilishi va tarqatilishi huquqi.

3. Muddat: Turdosh huquqlar ko'pincha mualliflik huquqlari bilan bir xil muddatda amal qiladi, lekin ular qonuniy asosda boshqacha belgilanishi mumkin.⁶

Xorijiy qonunchilikda xalqaro konvensiyalar, yani, xalqaro tashkilotlar. Masalan, **World Intellectual Organization (WIPO)** tarjimasi **“Dunyo Intellektual Mulk Tashkiloti”** orqali qabul qilingan konvensiyalar xorijiy litsenziyalash jarayonlariga asos bo'ladi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti - intellektual mulk sohasida bir qator asosiy xalqaro konvensiyalar, birinchi navbatda, Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasi va Sanoat mulkini muhofaza qilish to'g'risidagi Parij Konvensiyasini ma'muriy boshqarish bilan shug'ullanadigan xalqaro tashkilot. Shuningdek 1974 yildan beri u Birlashgan Millatlar tashkilotining ijodkorlik va intellektual mulk masalalari bo'yicha ixtisoslashgan agentligi funksiyalarini bajaradi.

A'zo davlatlar BIRPI uchun to'la huquqli hukumatlararo tashkilot maqomiga erishishni xohlashdi. Shuning uchun 1967 yilda Stokgol'mda BIMTni tashkil etuvchi Konvensiya imzolandi. BIMTning bosh qarorgohi Jeneva (Shveysariya) shahrida joylashgan. Bu yangi tashkilot o'zi bilan BIRPIning almashtirdi. 1974 yilda BIMT Birlashgan Millatlar tashkilotining ixtisoslashgan muassasasiga aylandi. Birlashgan Millatlar tashkiloti va BIMT o'rtasidagi shartnomaga ko'ra, BIMT ijodkorlikni rag'batlantirish va davlatlar o'rtasidagi kooperatsiya yo'li bilan butun dunyo bo'ylab intellektual mulkni himoya qilish maqsadida tuzilgan shartnomalar va bitimlarga muvofiq zarur harakatlarni amalga oshirish uchun javob beradi.

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash jarayoni har xil qonunchilik tizimlariga asoslangan va mamlakatlar o'rtasida farqlar mavjud. O'zbekistonning o'ziga xos talablari va xorijiy tajribalar to'g'risida chuqurroq ma'lumot olish, moliyaviy va biznes strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.⁷

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash masalalari haqida **xorijiy va milliy adabiyotlarda** ko'plab ilmiy tadqiqotlar va maqolalar mavjuddir. Quyida ba'zi muhim jihatlarni keltirib ketaman:

Xorijiy adabiyotda litsenziyalashning turli strategiyalari, jumladan, **eksklyuziv va eksklyuziv bo'lmagan** litsenziyalar, o'zaro kelishuvlarga oid tadqiqotlar mavjud.

⁶ “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonun

⁷ Dunyo Intellektual Mulk Tashkiloti

Masalan, “Intellectual Property Rights and Licensing” nomli maqola intellektual mulkni qanday qilib samarali litsenziyalash bo’yicha ko’rsatmalar beradi. Ushbu maqolani tahlil qilarkanmiz, zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Intellektual mulk huquqlari ijodkorlar va innovatorlarga o'z g'oyalari va ishlarini himoya qilish imkonini beradi, bu esa innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Litsenziyalash esa bu huquqlardan foydalangan holda boshqa shaxslar yoki kompaniyalarga foydalanish huquqini berish jarayonidir. Bu yondashuv, masalan, patent, mualliflik huquqi yoki tijorat sirlarini o'z ichiga oladi. Litsenziyalash orqali mulk egasi qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi va o'z mahsulotini kengroq bozorga chiqarishi mumkin. Yana bir muhim jihati, litsenziyalash shartnomalari ijodkorlar va kompaniyalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va yangi innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, intellektual mulk huquqlari va litsenziyalashni to'g'ri boshqarish iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanish uchun zarurdir. ⁸

Shuningdek, "**Digital Rights Management (DRM)**" va "**Copyright in the Digital Age**" kabi maqolalarda raqamli mahsulotlar uchun litsenziyalash mexanizmlari tahlil qilingan. Bu maqolalarda mualliflik huquqi va litsenziyalashning yangi formatlari, masalan, raqamli litsenziyalar va blockchain texnologiyalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, har biriga to'xtalsak, “Digital Rights Management (DRM) texnologiyalari raqamli kontentni himoya qilish va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Maqola DRM tizimlarining afzalliklari, kamchiliklari va ularning foydalanuvchilarga ta'siri haqida ma'lumot beradi. Intellectual Property in the Digital Age maqolasi esa raqamli davrda intellektual mulk huquqlari qanday o'zgarayotganini va bu o'zgarishlar mualliflar, iste'molchilar va sanoat uchun qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqadi. Raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi mualliflik huquqlari, patentlar va tovar belgilari kabi intellektual mulk turlariga yangi qiyinchiliklar keltirib chiqardi. ⁹

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, S. Smith (2022) "**Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish: yangi yondashuvlar**" nomli maqolasida raqamli platformalarda IM huquqlarini himoya qilishda innovatsion yondashuvlar taklif etadi. U raqamli iqtisodiyotda litsenziyalashning murakkabligini va ushbu jarayonni soddalashtirish uchun yangi yechimlarni izlaydi. Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish yangi yondashuvlar talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan intellektual mulk huquqlarining

⁸ “Intellectual Property Rights and Licensing”

⁹ “Digital Rights Management (DRM)” va “Copyright in the Digital Age”

buzilishi, xususan, mualliflik huquqlari, patentlar va tijorat sirlariga doir muammolar ko'paymoqda.

Yangi yondashuvlar, masalan, blokcheyn texnologiyasi va sun'iy intellektni qo'llash, mulk huquqlarini yanada samarali himoya qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Blokcheyn orqali mualliflik huquqlari hujjatlari va ijro etish tarixini shaffof va o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda saqlash mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida buzilishlarni aniqlash va ularga tezkor javob berish imkoniyatlari oshmoqda.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkni himoya qilish uchun innovatsion yondashuvlar, samarali qonunchilik va global hamkorlik zarur. Bu jarayon nafaqat ijodkorlar va ishlab chiqaruvchilar, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, J. Brown (2021) o'zining "**Litsenziyalash va raqamli muhit: muammolar va yechimlar**" maqolasida raqamli iqtisodiyotda litsenziyalash jarayonidagi qiyinchiliklarni va buni bartaraf etish uchun kerakli choralarni ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini litsenziyalash zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon bir qator qiyinchiliklar va muammolar bilan to'qnash keladi. Xorijiy va milliy qonunchilikda mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish, yangi texnologiyalari haqida so'z yuritadi.

Qonunchilikka taklif: "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib tamoillari to'g'risida"gi qonuning 9-moddasiga qo'shimchalar kirgizdirsa muvoffiq bo'lardi. Qonunchilikning amaldagi tahlili

9-modda. Faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini davlat muassasalari tomonidan amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etilgan davlat muassasalari, basharti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa, faoliyatning ushbu turlarini tegishli litsenziyani olmasdan amalga oshirishga haqlidir. Mazkur qoida ko'rsatilgan davlat muassasalarini litsenziya talablari va shartlarini bajarishdan ozod etmaydi.

Taklif etilayotgan tahrirda 9-moddaning o'ziga o'zgartirish kirgizdirish lozim. Bunda raqamli iqtisodiyot sahroitada litsenziyalangan faoliyat turlarini davlat muassasalari tomonidan elektron tizim orqali amalga oshirishdir. Taklifning asosiy jihatlariniga kelsak: avvalambor, faoliyat turlarini aniqlash ya'ni bunda davlat muassasalari tomonidan litsenziya lash uchub zarur bo'lgan faoliyat turlarining aniq ro'yxatini shakllantirish va uni elektron platformada e'lon qilish. Shuningdek, faoliyat

turlarini litsenziyalash jarayonini to'liq raqamli formatda amalga oshirish kerak. Bu arizalarni elektron tarzda berish, hujjatlarni topshirish va ruxsatnomlarni olishni o'z ichiga oladi. Va litsenziyalangan faoliyat turlari bo'yicha davlat muassasalari tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bazasini ta'minlash. Keyin esa, litsenziyalangan ma'lumot turlarini davlat nazorati va monitoringi elektron tizim orqali amalga oshirilishi, faoliyatning qonuniyligini ta'minlashga yordam beradi.

Ushbu taklif, davlat muassasalari faoliyatini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulkni himoya qilishni kuchaytirishga yordam beradi.

Xulosa

Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqini litsenziyalash muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayon ijodiy mahsulotlarni himoya qilish va ulardan foydalanishni tartibga solishga yordam beradi. Litsenziyalash orqali mualliflar o'z asarlaridan iqtisodiy foyda olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar, bu esa innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Shuningdek, litsenziya shartlari orqali raqamli kontentdan foydalanishning aniq qoidalari belgilanadi, bu esa raqobatni oshiradi va bozorni diversifikatsiya qiladi. Biroq, raqamli iqtisodiyotdagi global xususiyatlar litsenziyalash tizimlarini xalqaro darajada muvofiqlashtirishni talab etadi.

Umuman olganda, intellektual mulk huquqini litsenziyalash raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shartdir, chunki u ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lex.uz
2. Intellektual mulk huquqi darslik
3. World Intellectual Organization (WIPO) yani, "Dunyo Intellektual Mulk Tashkiloti"
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
5. "Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish: yangi yondashuvlar" nomli maqola
6. "Digital Rights Management (DRM)" va "Copyright in the Digital Age" maqollari
7. Wikipedia
8. "Intellectual Property Rights and Licensing" nomli maqola
9. Eshonkulov, Javoxir. "SUV RESURSLARINI MUHOFAZA QILISH YO'LIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIK TAHLILI." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 3 (2023): 47-52.
10. Javokhir Eshonkulov "Legal Foundations for the Application of Artificial Intelligence Technologies in the Sports Industry" American Journal of Education and Evaluation Studies Tom 1, No.7, 2024/10/4, 240-247

МА'LUMOTLAR JOYLASHUVIGA OID YURISDIKSIYA MASALALARI

Tursunboyeva Dinora

Tursunboyevadinora@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 1-kurs

B-potok 1-guruh talabasi

Javoxir Eshonqulov - ilmiy rahbar

javoxireshonqulov0724@gmail.com

Toshkent davlat yuridik unversiteti

Kiber huquq kafedrası o'qtuvchisi

Annotatsiya. Ushbu esseda bugungi kun uchun juda muhim va dolzarb bo'lgan ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari haqida reklama tushunchasi raqamli va qachon paydo bo'lganligi undan dastlab qaysi davlatlar foydalangan ekanligini va ma'lumotlar joylashuviga oid va ularning qanday tartibga solinishi va shu kabi dolzarb masalalar yoritilgan, Bundan tashqari qonunchilikka takliflar yoritilgan.

Kalit so'zlar; ma'lumotlar joylashuvi, yurisdiksiya, chet el qonunchiligi, chet el tajribalari, molliiy qonunchilik, tashqi ma'lumotlar.

KIRISH

Ma'lumot-so'zi ma'lumot yoki axborot degan ma'noni anglatadi. Bu odatda bilim, faktlar yoki tushunchalar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lib ularni o'rganish tahlil qilish yoki qo'llash uchun foydalanamiz. Bu ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari bu xizmatlarni ko'rsatish targ'ib qilish va ularni ananaviy ma'lumotlardan foydalanib farqli jihati aniq maqsadli auditoriyani aniqlab ular haqida ma'lumot joylashtirib ularga taqdim qilish imkonini beradi. Ma'lumotlar joylashuvi bu reklamaning asosiy turlari bo'lib bular ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar hamda ularning bannerlari video reklamalari va boshqalar.

Ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari bugungi kunda jufda muhim. Ular asosan quyidagi nuqtalarda kesishadi;

Ma'lumotlar joylashuvi; Ma'lumotlar fizik jihatdan qayerga saqlanishi yurisdiksiya masalalari ta'sir qiladi. Turli mamlakatlar o'z qonunlari va qoidalariga ega bu esa ma'lumotlarni qanday boshqarish va ularga qanday kirish imkoniyatlarini belgilaydi.

Milliy qonunchilik; Har bir davlat o'z ma'lumotlarini himoya qilish qonunlariga ega. Evropa Ittifoqining GDPR qonuni ma'lumotlarni saqlash va ishlov berish bo'yicha qat'iy talablarni belgilaydi.

Kross-milliy masalalar; Global koroxnalar ma'lumotlarni bir nechta mamlakatlarda saqlashi mumkin, bu esa yurisdiksiya masalalarini yanada murakkablashtiradi. Bu holatda bir mamlakatning qonunlari boshqa mamlakatlarda qanday amal qilishi haqida muammo yuzaga keladi.

Xavfsizlik va maxfiylik; Ma'lumotlarni himoya qilish xavfsizlik talablariga rioya qilish va maxfiylikni ta'minlash har bir yurisdiksiyaning muhim qismi hisoblanadi. Bu masalalar doimiy ravishda o'zgarib turadi va global raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan yanada dolzarblashadi.

Ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalasiga oid yurisdiksiya masalalari bunda ma'lumotlar joylashuvi asosan 1990-yillarda internetning keng tarqalishi bilan paydo bo'lgan. Bu davrda xalqaro qonun va siyosat internet orqali olingan ma'lumotlarga va ularning joylashuviga oid murakkab masalalarni malumotlarni saqlash joyi kabi masalalar yurisdiksiya chegaralarni kesib o'tganligi sababli muammolar yanada chuqurlashadi. Bugungi kunda esa bu masalalar global tarmoq bulutli xizmatlar va ma'lumotlarning transchegaraviy o'tishi bilan yanada dolzarb bo'lib qolmoqda.

Milliy qonunchilik;

Albatta milliy qonunchiligimizda ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari bir nechta qonunlar bilan tartibga solingan bularga misol qilib oladigan bo'lsak;

1. O'zbekiston Respublikasining "Ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari" to'g'risidagi qonun

2. O'zbekiston Respublikasining "Ma'lumotlarni joylashtirish to'g'risida" gi qonun

3. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir masalalari to'g'risidagi qonuni

Yuqorida ta'kidlangan Ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari to'g'risidagi qonunining 3-bobida aynan ma'lumotlarga doir umumiy va maxsus talablar deb nmlangan va ular bir nechta moddalardan iborat va ularda ma'lumotlar joylashuviga oid talablar ko'rsatilgan.

Ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiya masalalari bunda shaxsga doir masalalar deb oladigan bo'lsak bunda noqonuniy reklamaga yo'l qo'yilmaydi. Agar ma'lumotlarni beruvchi yoki reklama qilinyotgan bo'lsa agar bunda ma'lumotlardan foydalanayotgan reklama chalg'itib qo'ymasa va ularga xizmat ko'rsatmasa agarda putur yetkazsa ma'lumotlar joylashuviga oid yurisdiksiyaga yo'l qo'yilmaydi va unga ruxsat berilmaydi. Bunda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir masalalar to'g'risida" gi qonunlar bevosita ushbu qonunning maqsadi shaxsga doir ma'lumotlarni shu sohadagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonunning qo'llanilish sohasi ma'lumotlar joylashuviga oid ma'lumotlarga

The spread of English as a global language is both a product and a driver of globalization. As the world becomes more connected, English has emerged as a common thread that unites people across linguistic and cultural boundaries. Its role in international trade, education, technology and media demonstrates its importance as a tool for international communication and cooperation. However, the widespread use of English raises important questions about cultural identity and linguistic diversity. While English provides unique opportunities for communication, it can also overshadow local languages and traditions, creating challenges for cultural preservation. Ultimately, the global impact on the spread of English reflects a global dynamic—a world where the balance between unity and diversity remains an ongoing conversation. Understanding and managing these difficulties is important as we continue to use the English language to shape our future.

REFERENCES:

- 1.Cogo, A.(2008). English as a lingua franca. Form follows function. *English today*, 95,3,58,-61 p.
- 2.Jenkins,J. (2008). English as a Lingua Franca. JACET 47th Annual Convention. Waseda University, 11-13 September 2008.
- 3.Jenkins, J. (2000). The phonology of English as an international language. Oxford University Press.
- 4.Knapp, K.and Meierkord, Ch. (2002). *Lingua Franca Communication*. Frankfurt; Peter Lang.
- 5.Mauranen, A. (2009).Signalling and preventing misunderstanding in English lingua franca communication. *International Journal of the Sociology of Language*,177,123-150.

6. Seidhofer, B. (2006). Closing a conceptual gap; the case for a description of English as a lingua franca. *International Journal of Applied Linguistics*, 11 (2), 133-158.
7. Seidhofer, B. (2011). *Understanding English as a Lingua Franca; A Complete Introduction to the Theoretical Nature and Practical Implications of English Used as a Lingua Franca*. Oxford; Oxford University Press.
8. Trudgill, P.; Hannah, J. (2002). *International English; A Guide to the Varieties of Standard English*. 4th Ed. London; Arnold.

THE ROLE OF LANGUAGE IN THE CONSTRUCTION OF NATIONAL NARRATIVES

Rasulova Diyora Ziyodulla qizi

A Student of Chirchik State Pedagogical University

Scientific Advisor

Abduramanova Diana Valerevna

A teacher of Chirchik state pedagogical university

ABSTRACT:

Language plays a pivotal role in shaping and sustaining national narratives, acting as both a tool for communication and a medium for identity construction. This article explores how linguistic choices reflect and reinforce collective memory, shared values, and a sense of belonging within nations. By analyzing historical examples, cultural texts, and political discourse, the study highlights how language is employed to unify diverse populations, legitimize political authority, and frame national ideologies. It also examines the tensions that arise in multilingual or post-colonial contexts, where competing narratives challenge dominant linguistic frameworks. Ultimately, the article underscores the dynamic relationship between language and nation-building, arguing that linguistic practices not only mirror but actively construct the imagined communities at the heart of national identity.

Keywords: Narratives, Tool, Nation, Nationalism, Language and Identity, Cultural Identity, Multilingualism, Sociolinguistics

Introduction

Language is more than a communication tool. It is a powerful means by which communities construct their identities and tell their stories. In the context of nation-building, language plays a crucial role in the construction of national narratives – shared narratives that tell the story of a people’s past, inform its present, and envision its future. Crafted through political discourse, literature, media, and everyday conversation, these narratives are essential in fostering a sense of unity among diverse populations.

The connection between language and national culture is not static or static. Language choice reflects and reinforces the power of power, creating a shared memory and cultural values. In some cases, a single dominant language serves as a unifying force, while in others, multilingual communities reduce the tension between competing linguistic traditions. This task is particularly difficult in post-colonial contexts, where colonial and indigenous languages often coexist, creating layers of

conflict and conflict. This article examines the complex relationships between language and national discourse, examining how linguistic traditions shape communities of thought and create boundaries of inclusion and exclusion. By analyzing past and present examples, it reveals the transformative power of language to construct, maintain, and challenge national identity.

1.Role of Language in Shaping Cultural Identity

Language is deeply intertwined with cultural identity and serves as a primary indicator of who we are and how we relate to others. It is not only a means of communication, but also a repository of memories, values, customs and worldview. Through language, people and communities share their experiences, preserve their heritage and transmit their culture to the next generation. At the core of cultural identity, language provides a framework for expressing belonging and unity. Meters, dialects, and language differences can express regional, ethnic, or racial connections, and people can associate themselves with specific cultural groups. For example, indigenous languages have unique ways of understanding the world and incorporate ecological knowledge, spiritual beliefs, and social norms into their vocabulary and grammar. However, the relationship between language and cultural identity is not without its challenges. The globalization and dominance of major languages, such as English, leads to linguistic convergence and threatens the survival of minor and related languages. When languages are lost, so is their cultural identity. Instead, language restoration projects show how communities can restore and strengthen their identity by preserving and promoting their linguistic heritage. Finally, language is the reflection and creator of cultural identity. It shapes how a community sees itself and how others see it. In a world of increasing cultural exchange, the protection of linguistic diversity is essential to preserving the richness and complexity of human identity.

2.The Connection Between Language and National Identity

Language and national identity are intertwined, and language serves as a symbol and a tool for expressing the identity and unity of a people. Throughout history, shared languages have played a significant role in uniting diverse populations, creating a sense of belonging and fostering collective pride. Language not only enables communication but also reflects the history, values and heritage of a people.

A common language can be a cornerstone of national identity, especially in countries that seek to unite their peoples. It is often used in influential contexts - government, education and the media - to promote a specific message of national unity. For example, the adoption of French as the national standard language helped consolidate its national identity, while the actions of countries such as Japan and

Italy have increased linguistic homogeneity. as a national symbol. At the same time, the relationship between language and national identity can be accompanied by problems. Multilingual countries such as India or Canada are faced with the problem of balancing the promotion of the national language with the promotion of regional and minority languages. In post-colonial contexts, the dominance of colonial languages undermines the claim of indigenous peoples, as in many African countries. Language is also a tool for prevention and healing. Movements to revive indigenous languages, such as Maori in New Zealand or Hebrew in Israel, illustrate how language can be used to assert sovereignty, reconnect with heritage, and redefine national identity. In essence, language serves as a bridge between individual and collective identity, connecting people to a sense of national identity. The way people speak their language exemplifies the values they cherish and the unity they strive for, and can be a powerful force in the creation and maintenance of national identity.

3. Language and Nationalism

Language and national identity are closely linked, as language serves as a symbol and a vital tool for national movements. It is a symbol of identity, a means of expressing culture, and a means of distinguishing one people from another. By cultivating the heritage of language, national ideas seek to unite populations under a single identity, strengthen social cohesion, and assert political power.

Nationalist groups often emphasize the importance of the national language as a unifying force. In the 19th and early 20th centuries, during the rise of nation-states, many European countries promoted national languages as symbols of sovereignty and pride. Germany's emphasis on the German language as central to its national identity, or Italy's comparison of the Italian language to unify various regions are prime examples of this phenomenon.

Conclusion

Language is essential in the construction of national narratives that shape the way people define their history, culture, and identity. Through language, a shared memory is captured, cultural values are transmitted, and a sense of belonging is fostered. Whether used to unite diverse populations, assert political power, or challenge colonial legacies, language is a powerful tool in nation-building.

But the role of language in national narratives is complex and multifaceted. It can be unifying, but also a source of tension, especially in multilingual or multicultural contexts. The act of promoting a language that is central to national identity often marginalizes other language communities, leading to struggles for inclusion and representation. At the same time, movements to revive nearby or indigenous languages demonstrate the enduring power of language to reclaim and rebuild national identity.

As nations develop in an interconnected world, language plays an important role in creating a national narrative. Protecting linguistic diversity while promoting inclusive discourse is essential to building communities that reflect the richness and complexity of their people. In the end, the stories people tell about themselves - and the languages they speak - cannot be separated from the symbols they seek to create.

REFERENCES:

1. Eliot, T. S. *The Waste Land*. — London: Faber & Faber, 1922.
2. Joyce, James. *Ulysses*. — New York: Sylvia Beach, 1922.
3. Woolf, Virginia. *Mrs Dalloway*. — London: Hogarth Press, 1925.
4. Breton, André. *Nadja*. — Paris: Éditions Gallimard, 1928.
5. Sartre, Jean-Paul. *Nausea*. — Paris: Gallimard, 1938.
6. Camus, Albert. *The Stranger*. — Paris: Éditions Gallimard, 1942.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA INGLIZ TILI FANIDA DIDAKTIK O‘YINLARNI QO‘LLASH

Z.D.Abralova – TDPU, katta o‘qituvchi
M.B.Toxirova - TDPU, talaba

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar bolalardagi diqqatning tarqoqligi va o‘yin faoliyatidan o‘qish faoliyatiga o‘tish qiyinchiliklari kabi muammolarga duch keladilar. Ushbu maqolada ingliz tili fanidan o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishi, motivatsiyasini oshirishga, shuningdek ularni faollikka undashga yordam beruvchi didaktik o‘yinlarning ahamiyati va qo‘llash texnikalari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, didaktik o‘yin, innovatsion, interaktiv, warm-up activity, ijtimoiy ko‘nikmalar, motivatsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГР НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: Учителя сталкиваются с проблемами, такими как рассеянность внимания учеников и трудности перехода от игровой деятельности к учебной, обучая учащихся начальных классов. В этой статье рассматривается важность и методы дидактических игр, которые помогают повысить интерес и мотивацию учащихся к урокам английского языка, а также способствуют их вовлеченности.

Ключевые слова: начальный класс, дидактическая игра, инновационный, интерактивный, разогревающие задание, социальные навыки, мотивация.

USING DIDACTIC GAMES IN ENGLISH LESSONS FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract: Teachers face challenges such as the distraction of students' attention and the difficulty of transitioning from play activity to learning activity when teaching elementary school students. This article discusses the importance and techniques of didactic games that help increase students' interest and motivation in English lessons, as well as encourage their engagement.

Key words: primary school, didactic game, innovative, interactive, warm-up activity, social skills, motivation.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismiga aylangan va har qanday kasb egalaridan kamida chet tillaridan birini bilish talab etilmoqda. Yer yuzida 7000 dan ortiq til mavjud bo'lib, ulardan ingliz, xitoy, ispan va arab tillari dunyo bo'ylab keng tarqalgan tillar qatoridan yuqori o'rinlarni egallaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ingliz tili dunyo tiliga aylanib bormoqda. Chunki bu til 500 milliondan ortiq inson uchun asosiy muloqot tili hisoblanadi va 1 milliard 300 millionga yaqin inson tomonidan ikkinchi til sifatida foydalaniladi. Ko'plab xalqaro munosabatlar, biznes uchrashuvlar ingliz tilida olib borilayotganligi va ilm-fanga aloqador bo'lgan ma'lumotlarning ko'p qismi, ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklar aynan shu tilda bo'lganligi tufayli bu ko'rsatkichlar tobora o'sib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun chet tillari xususan ingliz tilini o'rganish nafaqat yuqori sinf o'quvchilari balki maktabgacha bo'lgan ta'lim tarbiyalanuvchilari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham ta'lim dasturlaridan joy olgan. Ammo turli yosh vakillari uchun ingliz tilini o'rgatishda turli yondashuvlar va metodlardan foydalaniladi. Psixologlarning fikriga ko'ra, yosh bolalar katta insonlarga nisbatan yangi o'rganilayotgan tilni tez va osonlik bilan o'zlashtirar ekanlar. Bolalardagi til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi va kattalarga qaraganda bolalarda yangi tilni o'rganish uchun ko'proq vaqt bo'lishi buning asosiy sabablaridan biri bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar ko'p hollarda yangi ma'lumotlarning ma'nosini tushunib emas, balki mexanik tarzda o'rganadilar. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda avvalo grammatik tushunchalarni izohlashdan boshlamaslik kerak. Aks holda, chet tilini o'rganishning ilk qadamlaridanoq bolada zo'riqish kuzatilishi, shuningdek shu tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqish ham so'nib borishi mumkin. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun, dars jarayonida ingliz tili fanini turli xil didaktik o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir.

Game-Based Learning - bu o'quvchilarga har qanday mavzu yoki fanni oson o'rgatishda yordam beradigan va tobora ommalashib ketayotgan ta'lim strategiyalaridan biri hisoblanadi. Game-Based Learning (GBL) o'yin asosida o'qitish metodologiyasi bo'lib, u o'z ichiga o'quv jarayonida o'yin elementlari va didaktik o'yinlarni qo'llashni oladi. GBL, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan ko'proq interaktivlik, qiziqish va motivatsiyaga boy muhit yaratishga ko'maklashadi. Bu metodologiyaning asosiy jihatlaridan biri — o'yin elementlarining qo'llanilishidir. O'quvchilar uchun ularning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha qiziqarli vazifalar, murakkabligi yuzasidan mos topshiriqlar va mukofotlar berilishi, ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. O'yinlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatiga ega

bo'ladilar, bu esa ularning o'z-o'zini baholash ko'nikmasini oshirishga yordam beradi. GBL metodologiyasi o'quv jarayonida interaktivlikni ta'minlaydi. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynab turish sinfda shu fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishni yanada oshirishga yordam beradi va passiv o'quvchilarni ham darslarga qatnashishga undaydi. O'quvchilar o'yin jarayonida birgalikda ishlashadi, bu esa o'quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilishiga va fikr almashishiga imkon yaratadi. Didaktik o'yinlar nafaqat individual balki jamoaviy tarzda ham amalga oshirilganligi tufayli sinf o'quvchilarini jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini ham o'stirishga yordam beradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar. 2018-yilda amerikalik olimlar **J.Smith** va **A.Jones** tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ingliz tilini o'rganishda o'yinlarning ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda boshlang'ich sinflarda o'yinlar yordamida til o'rganish motivatsiyasi va natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchilarning motivatsiyasi va akademik muvaffaqiyatlarini an'anaviy ta'lim usullari bilan taqqoslash edi. Tadqiqotda 100 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etgan. O'quvchilar ikki guruhga bo'lingan: biri o'yinlar orqali, ikkinchisi esa an'anaviy dars usullari yordamida ingliz tilini o'rgangan. O'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va motivatsiyasi tadqiqot davomida bir necha marotaba baholandi. Natijada:

- o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganayotgan bolalar an'anaviy usullar bilan ta'lim olayotgan bolalarga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo'lishgan;
- o'yinlar yordamida til ko'nikmalarini rivojlantirgan bolalar o'z bilimlarini amaliy ravishda qo'llashda yaxshiroq natijalarga erishganlar;
- o'yinlar bolalar orasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga ham yordam bergan.

Tadqiqot natijalari o'yinlar orqali til o'rganish nafaqat qiziqarli, balki samarali bo'lishini ko'rsatadi. O'qituvchilar uchun bu yondashuvni dars jarayoniga kiritish, bolalarning til o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkoniyatini beradi. Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradigan bir nechta didaktik o'yinlar haqida ma'lumot berilgan:

1. Word Chain (So'zlar zanjiri) — bu ingliz tilini o'rganish jarayonida foydalaniladigan qiziqarli va interaktiv o'yinlardan biri hisoblanadi. O'yin quyidagicha o'ynaladi:

- Kamida 2 yoki undan ortiq o'quvchi ishtirok etishi mumkin. Lekin o'yin davomida ko'proq o'quvchilarni qamrab olish o'yinni qiziqarli va biroz murakkablashtirishga imkon yaratadi.
- O'yin ilk ishtirokchi bir so'z aytishi bilan boshlanadi (masalan, "apple").

- Navbatdagi o‘yin ishtirokchisi berilgan so‘zning oxirgi harfi bilan boshlanadigan yangi so‘z aytishi kerak (masalan, "elephant").

- O‘yin shu tariqa davom etadi, har bir o‘yinchi o‘z navbatida so‘z aytadi. Agar o‘yinchi bir so‘z aytishda qiynalsa yoki takrorlasa, u o‘yindan chiqishi mumkin.

O‘yinning bu turi 3-4- sinflar uchun mos keladi va o‘yin boshlanishida ma’lum bir mavzu tanlanishi mumkin (masalan, hayvonlar, oziq-ovqat, ranglar). Bu didaktik o‘yin orqali o‘quvchilar so‘z boyligini oshirishi va tez fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

2.Repeat and Say (Takrorla va ayt) - o‘yin davomida ishtirokchilardan ko‘proq e’tibor va xotira talab qilinadi. Bu o‘yinning murakkablik darajasi aynan 1-2- sinf o‘quvchilari uchun juda mos va o‘yin shartlariga biroz o‘zgartirishlar kiritish orqali (masalan, aynan biron bir mavzu yuzasidagi so‘zlardan foydalanish yoki faqatgina bir harfdan boshlanuvchi so‘zlarni ishlatish) bu o‘yin turini nafaqat boshlang‘ich balki yuqori sinf o‘quvchilari uchun ham qo‘llash imkonini beradi. Bu o‘yin qanday olib boriladi ?

- Birinchi ishtirokchi bir so'z yoki ibora aytadi (masalan, "happy").

- Ikkinchi ishtirokchi bu so‘zni takrorlaydi va yangi so‘z yoki ibora qo‘shadi ("happy", "sad").

- O‘yin davom etar ekan, har bir ishtirokchi avvalgi so‘zlarni takrorlashi va o‘z so‘zini qo‘shishi kerak.

3. Board race - bu didaktik o‘yin o‘rganilgan yangi lug‘atlarni takrorlashga va mustahkamlashga yordam beradigan innovatsion va quvnoq o‘yinlardan biri. O‘yinni dars boshlanishida "Warm-up activity" sifatida ya’ni o‘quvchilarni aktiv holga keltirish, diqqatni jamlash va ingliz tili muhitini yaratishda foydalansa bo‘ladi. Chunki kichik maktab davri o‘quvchilarida diqqat bir muncha tarqoq bo‘ladi, shuningdek ularga ketma-ket darslarning o‘tilishi biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin va bunday vaziyatlarni oldini olishda board race o‘yini samarali yo‘llardan biri hisoblanadi. Bu o‘yin qanday amalga oshiriladi?

- Sinfidagi o‘quvchilarni 2 kichik guruhlariga ajratib olishdan boshlanadi.

- Sinf doskasi ikkiga bo‘linadi va har bir guruh uchun doskaga yozishga mo‘ljallangan rangli markerlar yoki bo‘rlar beriladi.

- So‘ng biron bir mavzu tanlanadi. O‘quvchilar birin-ketinlik bilan shu mavzuga oid so‘zlarni 2-3 daqiqa ichida doskaga yozishlari kerak.

- O‘yin yakunida har bir to‘g‘ri yozilgan va mavzuga doir so‘z uchun 1 balldan beriladi. Yuqori ball to‘plagan jamoa g‘olib bo‘ladi.

Bu o‘yin o‘quvchilarning to‘g‘ri yozish ko‘nikmalari va so‘z boyligini sinab ko‘rish uchun juda foydali va samaralidir.

4. 20 objects - bu o'yin orqali bir vaqtning o'zida o'quvchilarning xotirasi va so'z boyligini sinovdan o'tkazish mumkin.

- Bu o'yin uchun faqatgina doska va 20 ta sinf xonasidagi buyumlar kerak bo'ladi (bunga ranglar yoki avvalgi darsda o'rganilgan yangi so'zlar ro'yxatini ham qo'shish mumkin).

- Buyumlarni hammasini stol ustiga qo'yib, o'quvchilardan buyumlarga diqqat bilan qarash talab qilinadi.

- Keyin hamma buyumlarni 1 daqiqadan so'ng qog'oz (shunga o'xshash biron narsa) bilan yopib, o'quvchilarga daftarga eslab qolgan buyum nomlarini yozish aytiladi.

Barcha o'quvchilar vazifani tugatganidan so'ng, doskaga o'qituvchi tomonidan so'zlar ro'yhati yoziladi va o'quvchilar o'zlarini yoki daftarlarni almashish orqali bir-birlarini tekshiradilar. Bu o'quvchilarni nafaqat dars jarayoniga qiziqtirish balki o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga imkon yaratadi.

Ta'lim berish jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga e'tibor berish o'rinli. Kichik maktab yoshi davri o'quvchilarining psixologik-pedagogik asosi o'yin faoliyatini tashkil qilganligi tufayli o'quv jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash nafaqat chet tilini balki boshqa fanlarni ham o'rganishning eng samarali va foydali usullaridan biridir. Dars jarayonini innovatsion didaktik o'yinlar yordamida tashkil qilish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, motivatsiyasini oshiradi, ularning fikrlash jarayonlarini faollashtiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A.Namazova, G.A.Dosjan "Modern methods of using games in teaching English". 2019-y.
2. J.Smith, A.Jones " The effects of games in learning English ". 2018.
3. G.O.Qodirova, F.Xudoyorova "Til o'qitishda o'yin metodidan foydalanish". Samarqand 2021.
4. <https://www.com.wikipedia.uz>
5. <https://www.gooverseas.com/blog/10-best-games-esl-teachers>

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA O'QISH VA YOZUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

A.P.Xujamkulov - TDPU, o'qituvchi

F. Qo'shmurodova - TDPU, talaba

R.Todjiboyeva –TDPU, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tili sohasida mavjud bo'lgan o'qish va yozuv ko'nikmalarida bo'lgan bilimlarini oshirish va rivojlantirish uchun ko'zda tutilgan samarali metodlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: yozuv ko'nikmasi, o'z fikrini ifodalay olish, fikr almashish, vaqtni boshqarish, yozuv uslublari, o'qish ko'nikmasi, o'qilgan matnni tahlil qilish, skimming, scanning, o'qish texnikalarini qo'llash, o'qish maqsadini aniqlash.

Аннотация: Данная статья направлена на улучшение и развитие знаний и навыков учащихся старших классов общеобразовательных школ, в области английского языка. Предоставляется информация об используемых эффективных методах.

Ключевые слова: навыки письма, умение выражать свое мнение, обмен идеями, тайм-менеджмент, стили письма, навыки чтения, анализ прочитанного текста, сканирование, постановка цели обучения.

Annotation: This article aims to improve and develop the knowledge and skills of students in the upper grades of general secondary schools, in the field of English language. Information was provided about effective methods used.

Key words: writing skills, ability to express one's opinion, exchange of ideas, time management, writing styles, reading skills, analysis of the read text, skimming, scanning, use of reading techniques llash llash, setting the purpose of study.

Ta'lim jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Umuman olganda, ushbu asosiy usullardan foydalangan holda fanga qiziqishni oshirish va o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ingliz tili darsida o'quvchining o'rganish va kognitiv munosabatlarini rivojlantirish uchun eng avvalo ularning tilga qiziqishini oshirish yo'llarini izlash zarur. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirishdan iborat. O'qituvchi darsda yangi texnologiyadan foydalansa, o'quvchilar darsda faol ishtirok etib, yangi mavzuni tushunadilar. Ushbu yo'nalish bilan bog'liq holda umumiy ingliz tili darsida o'qitishning yangi texnologiyalari, ya'ni interfaol usullardan foydalangan holda ish olib boriladi: munozaralar, individual ish, guruh ishlari, so'rovnomalar, taqdimotlar,

boshqotirmalar. Ushbu usullardan foydalanib, turli natijalarga erishish mumkin. Interfaol usul asosiy bosqichma-bosqich rivojlanish uchun o'quv tizimining o'z belgilangan qoidalariga ega. Ushbu shartlarning asosiy maqsadi ayirboshlashda ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida ishonchli munosabatlar, erkin muloqot va demokratik uslubni o'rnatishdir. Asosan interfaol usullar o'quvchilar tomonidan o'yinlar, boshqotirma metodi, savol-javob usuli va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganish orqali qo'llaniladi. Asosiy usullar mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida nashr etilgan va muhokama qilingan. Xususan, Bim I. L., Galskova N. D. asarlarida bir qator ta'lim texnologiyalari tadqiq etilgan.

Yozuv ko'nikmasi — bu fikrlarni, g'oyalarni va his-tuyg'ularni yozma shaklda ifodalash qobiliyatidir. Bu ko'nikma nafaqat o'z fikrlaringizni aniq va ravon ifodalashga yordam beradi, balki kommunikatsiya, ta'lim va professional sohalarda muvaffaqiyatli bo'lish uchun ham zarurdir. Yozuv ko'nikmalarini oshirish - bu davomiy jarayon bo'lib, sabr-toqat va izchillikni talab qiladi. O'qish, yozish, tahlil qilish va turli uslublarni o'rganish orqali yozuv ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Har bir inson o'z fikrlarini ifodalashda va ijodkorlikda yangiliklar kiritishda erkin bo'lishi kerak.

O'qish ko'nikmasi — bu insonning matnni tushunishi, tahlil qilishi va undan ma'lumot olish qobiliyatidir. O'qish faqatgina so'zlarni tanib olishdan iborat emas, balki u matnning mazmunini anglash, muallif fikrlarini tushunish va olingan ma'lumotni hayotda qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi. O'qish ko'nikmalarini oshirish — bu jarayon bo'lib, doimiy amaliyot va to'g'ri strategiyalar yordamida amalga oshiriladi. Yuqoridagi tavsiyalarni qo'llab, har bir inson o'z o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

O'qish (reading) ko'nikmasini oshiruvchi metodlar:

Kichik hikoyalarni o'qish - kichik hikoyalarni o'qib, atrofda ingliz tili o'rganuvchilar bilan bahs-munozara yuritish. Bu nafaqat o'qishni oshiribgina qolmay, so'zlashuvda bo'lgan qobiliyatlarni ha shubhasiz oshiradi. Kichik hikoyalardan so'ng birma- bir katta hikoyalarni o'qish tavsiya etiladi.

Lug'at yodlash - yangi so'zlarni yodlash o'qishda duch keladigan muammolardan xalos etadi, yangi so'zlar nafaqat readindagi muammolarni bartaraf etibgina qolmay, gapirishda bo'lgan qobiliyatlarni ham oshiradi va lug'at boyligini ham oshirishga yordam beradi.

Qayta yozish va izoh berish - o'qilgan matnni lug'atdagi so'zlar bilan almashtirish yoki shu matnga izoh berish. Bu ingliz tilidagi matnlarni to'la to'kis tushunishga imkon beradi.

О'qish texnologiyalaridan foydalanish - elektron kitoblar, shu bilan birga audio kitoblar yoki mobil ilovalardan foydalanish o'qish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Yozish (writing) ko'nikmalasini oshiruvchi metodlar:

О'qish- ya'ni turli xil janrdagi kitoblarni, maqolalarni va hikoyalarni o'qish yozuv malakalarini oshirishga yordam beradi. Bu usul orqali yangi so'zlar, iboralar va uslublar o'rganiladi.

Yozish amaliyoti- har kuni yoki haftada ma'lum bir vaqt ajratib, yozish amaliyotini bajarish, misol uchun kundalik yozish, esse yoki hikoya yozish.

Kunlik ishlarni yozish uchun kundalik (diary) - yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, doimiy ravishda yozish orqali yozuv ko'nikmalarini oshirish mumkin, yozish jarayoni ijodkorlikni oshiradi shu bilan bir qatorda yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi.

Ushbu metodlar ingliz tili o'rganuvchilarda duch keladigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu metodlar orqali yuqori sinf o'quvchilari o'z ustlarida o'zlari ishlay olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bull, S., Ma, Y. Raising learner awareness of language learning strategies in situations of limited recourses. Interactive Learning Environments, 2000. 9(2)-171-200p.
2. Ш.М. Жумабаева. Развитие навыков чтения учащихся на уроках английского языка с использованием инновационных технологий/ Молодой учёный. 2003. №19(466).- С.469-473

INGLIZ TILINI O'RGATISH KO'NIKMALARINI OSHIRUVCHI METODLAR

B.J.Muhammadiyev - TDPU, o'qituvchi
R. Ahmadova –TDPU, talaba

Annotatsiya: Bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan e'tibor kundan kunga rivojlanib bormoqda. Ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab kuchaymoqda. Ingliz tili bugungi kunda global muloqot uchun eng ko'p ishlatiladigan tillardan biridir. Bu tilda muloqot qilish, o'qish-yozish, ish qilish, turizm va bilim sohasida muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilini bilish insonning dunyodagi imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va ko'plab kasblarni ochadi.

Kalit so'zlar: malaka, ko'nikma, duolingo, babbel, rosetta stone, kreativlik, internet, tarqatma material, metod.

Аннотация: В наше время внимание к изучению языков с каждым днем растет. Особенно увеличивается спрос на изучение английского языка. Английский язык сегодня является одним из самых используемых для глобального общения. Умение общаться, читать, писать и работать на этом языке имеет важное значение в сфере туризма, образования и профессиональной деятельности. Знание английского языка помогает расширить возможности человека в мире и открывает множество профессий.

Ключевые слова: компетентность, навык, “duolingo”, “babbel”, “rosetta stone”, креативность, интернет, раздаточный материал, метод.

Annotation: attention to language learning is developing day by day. In particular, the demand for learning English is increasing. English is one of the most used languages for global communication today. This language is important for communication, reading and writing, work, tourism and the knowledge market. Knowing English helps to expand a person's opportunities in the world and opens many careers.

Key words: competence, skill, duolingo, babbel, rosetta stone, creativity, internet, handout, method.

So'nggi vaqtlarga kelib, ingliz tili jahonda katta ahamiyatga ega til maqomiga ega bo'lib bormoqda. Bugungi davrning eng global, dolzarb masalasi bu - til o'rganish hisoblanadi. Xorijiy tillarni bilish professional ta'limning ajralmas bir bo'lagiga aylanib bormoqda. Chunki chet davlatlar bilan hamkorlik qilish darajasi yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgani tufayli til o'rganishga bo'lgan talab yuqori. Dastlab insonlar tilni bog'cha, maktab, litsey davrlari keyinchalik institutlarda yoki mustaqil

ravishda turli o'quv kurslari hamda internetdan o'rganadilar. Til asosiy aloqa vositasidir, usiz jamiyatning borligini va qanday rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Ingliz tilini o'rganish uchun ingliz tili darsliklari, onlayn resurslar (masalan, Duolingo yoki Babbel), ingliz tilida filmlar va musiqalar, amaliy (suhbatlashish, yozish, o'qish) kabi vositalardan foydalanish lozim. T.A. Myasoyed, N. Suvorova va S.B. Stupinalarning asarlarida ta'kidlanganidek, interfaol ta'limning mohiyati barcha o'quvchilarni bilish jarayoniga jalb qilish va o'quv jarayonini maxsus tashkil etishda namoyon bo'ladi. O'quv materialini o'zlashtirish jarayonida talabalarning birgalikdagi faoliyati har birining o'ziga xos individual hissasini qo'shishini, bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullarining almashinishini ta'minlaydi. Interfaol texnologiyalarga talabalarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'lishini ta'minlaydigan usullar kiradi. Interfaol ta'lim esa barcha o'quvchilarning, shu jumladan, o'qituvchining ham o'zaro ta'siriga asoslangan ta'lim shaklidir. Ingliz tilini o'rganishda bir qancha metodlarga tayanamiz va ushbu metodlardan foydalanamiz.

1. Darslik va onlayn mavzular bilan ishlash metodi. Kundan kunga texnologiyalarga ya'ni IT sohasiga bo'lgan talab kuchaymoqda. Shu sababli darsda internet va turli xil texnologiyalardan foydalanib til o'rganish zamon bilan hamnafas bo'lishga, shuningdek tilni onlayn platformalar (masalan, Duolingo, Babbel, Rosetta stone kabi resurslar) bilan tez va oson o'rganishga yordam beradi va darsni qiziqarli qiladi. Chunki yoshlar orasida internet va texnologiyaga bo'lgan qiziqish yuqori.

2. O'qish metodi. Hozirda deyarli barcha kitoblar turli xil tillarga tarjima qilingan va ularni xohlagan tilda mutolaa qilishimiz mumkin. Ingliz tilidagi kitoblar, maqolalarni o'qish insonlarning so'zlashuv darajasi va yozuv ko'nikmalarini yaxshilaydi, shuningdek, dunyoqarashini kengaytiradi.

3. Ingliz tili tarjimasini yaratish metodikasi. Turli xildagi kitob, jurnal, maqolalarni inglizcha tarjima qilish orqali, ingliz tilidagi yangi so'zlarni bilish orqali lug'at boyigini oshirish mumkin. Bu esa o'quvchida speaking ya'ni so'zlashuv qobiliyatini shubhasiz oshiradi.

4. Madaniyatni o'rganish. Ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarning madaniyatini o'rganish orqali tilni chuqurroq tushunish. Bu metodikalar birgalikda ishlatilganda yanada samarali bo'lishi mumkin. Eng muhimi, o'rganish jarayonidan zavq olish va davomiylikni saqlashdir.

5. Yozma mashqlar. Ingliz tilida blog yozish orqali fikrlarni ifodalash va yozma ko'nikmalarni rivojlantirish ingliz tilini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Darsda tarqatma material va qiziqarli o'yinlardan foydalanish. Dars jarayoniga kreativ yondashib, qiziqarli texnologiyalardan foydalanish orqali til o'rganuvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirish samarali natija beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu kabi metodlar barchada til o'rganishga bo'lgan qarashni yanada kuchaytiradi va motivatsiya beradi. Til o'rgatishda kreativ va ijodkor bo'lish talim jarayonini sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.
2. Ряховская, А. Ю. Современные технологии в преподавании английского языка: учебное пособие/ Ряховская А.Ю. Брянск: РИСО БГУ. – 2019. – 116 с.
3. Уваровская, О.В. Интерактивное обучение как условие реализации ФГОС в СПО : учебное пособие– Москва ; Берлин : Директ-Медиа, 2020.
4. Jalolov J.J., Makhamova G.T., Mamadayurova V.Sh., L.Ismatova Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi. -Tashkent, 2010.- 96 b.
5. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. —Ingliz tili darlarida qo'llaniladigon interfaol usullar (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.

TARJIMA SIRLARI VA MUAMMOLARI

*Andijon davlat chet tillari isntituti
Roman-german va slavyan tillari fakulteti
Nemis tili ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabasi
Adaxamjonova Gulsanam Dostonbek qizi
Tel: +998944220720
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S***

Annotatsiya: Maqolada tarjima san'ati va uning murakkab jihatlari, shu jumladan, tarjimada uchraydigan asosiy muammolar va sirlar keng yoritilgan. Tarjima jarayoni nafaqat lingvistik bilimni, balki madaniyatlararo aloqalar, kontekstni va stilistik xususiyatlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Asosiy muammolar orasida ma'no va hissiyotning yo'qolishi, madaniyatlararo farqlar, grammatika va sintaksisdagi farqlar, konnotatsiya, so'zning ekspressivligi, dialektlar va mahalliy til ishlatishdagi qiyinchiliklar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, madaniyatlararo farqlar, ma'no, hissiyot, grammatika, sintaksis, moslashtirish (localization), parafrazlash, kontekstual yondashuv, stilistik muammolar, dialekt, ekvivalent, tarjimon.

Аннотация: В статье рассматривается искусство перевода и его тонкости, в том числе основные проблемы и загадки, возникающие при переводе. Процесс перевода требует не только лингвистических знаний, но и межкультурных связей, контекста и стилистических особенностей. Среди основных проблем — потеря смысла и эмоций, межкультурные различия, различия в грамматике и синтаксисе, коннотации, выразительности слов, диалектов и трудности в использовании местного языка.

Ключевые слова: перевод, межкультурные различия, смысл, эмоция, грамматика, синтаксис, локализация, перефразирование, контекстуальный подход, стилистические проблемы, диалект, эквивалент, переводчик.

Abstract: The article covers the art of translation and its intricacies, including the main problems and mysteries encountered in translation. The translation process requires not only linguistic knowledge, but also cross-cultural relations, context, and stylistic features. Among the main problems are the loss of meaning and emotion, cross-cultural differences, differences in grammar and syntax, connotation, expressiveness of words, dialects and difficulties in using the local language.

Key words: translation, intercultural differences, meaning, emotion, grammar, syntax, localization, paraphrasing, contextual approach, stylistic problems, dialect, equivalent, translator.

Tarjimaning birlamchi sharti til bilish bo'lsada, tarjima uchun faqat shuning o'zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko'pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to'g'ri keladiki, bu g'ayrilisoniy omillar deyiladi.

Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bogʻliq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib oʻtgan, tildan tashqari muammolari gʻayri lisoniy muammolar hisoblanadi¹.

Gʻ.Salomovning yozishicha, “Tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib oʻtiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy anʼana, ikki sheʼriy sistema, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud toʻqnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir” deydi.

Tarjimon tarjima jarayonida lingvokulturologiya sohasida koʻplab muammolarga duch kelishi mumkin. Lingvokulturologiya “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini oʻzida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda oʻrganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. Tarjima jarayoni har bir tarjimonning individual ijod jarayoni, lekin shunday jarayonlar borki bunda tarjimon individual munosabat bildira olmaydi bu masala aksariyat holatlarda xalqning oʻziga xosligi, yaʼni lingvomadaniy soʻzlari orqali namoyon boʻladi, bu jarayonda tarjimon shaxsiy tushunchalari bilan ish tuta olmaydi yoki tarjima jarayonida bu kabi soʻzlarni tarjimadan tushirib qoldira olmaydi bunday sharayonda muqobil, yaʼni adekvat tarjimaga erishish uchun quyidagi tarjima usullaridan foydalanish mumkin²:

1. Translitteratsiya. Ushbu usulda termin asliyat tilida qanday boʻlsa grafik yaʼni harfma har qanday boʻlsa shunday tarjima qilinadi.

2. Transkripsiya. Tovush formalari orqali tarjima qilish usuli yaʼni tarjima qilinilayotgan tilda qanday aytilsa huddi shunday talaffuz qilib.

3. Kalka usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildagi semantikasini toʻliq saqlab qolgan tarzda soʻzma soʻz tarjima toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilish.

4. Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud boʻlgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish³.

Jarayonida muqobil varianti topilmagan taqdirda aynan oʻsha terminga izoh berish orqali tarjima qilish tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lugʻatlar maʼlum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lugʻatlarda soʻz niaʼnosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lugʻati qanchalik mukammal boʻlmasin, unda soʻzlarning barcha maʼnolari yoki maʼno nozikliklarini qamrab olishning iloji yoʻq, chunki lugʻat ikki til tizimi unsurlari bilan ish koʻradi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, nutq mahsuli

¹ Tarjima muamolari (maqolalar toʻplami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

² Tarjima muamolari (maqolalar toʻplami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

³ [https:// scienceweb.uz](https://scienceweb.uz).

bo‘lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko‘p ma’noli so‘zning qaysi ma’nosi qo‘llanilganligini kontekst asosida o‘zi aniqlamog‘i lozim.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Affikslar, grammatik qo‘shimchalar va so‘z yasalishi, sintaktik modellar, so‘z tartibi, yordamchi so‘zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma‘noni, leksik ma‘nolarning aniq shaklini ko‘rsatishga xizmat qiladi⁴. Tarjima qilish jarayonida bu ma‘nolarni ifodalash muhim muammodir.

Tarjima jarayonida turli leksik, semantik, stilistik, grammatik, muammolarga uchramaslik uchun so‘zma so‘z tarjima qilish emas, balki gapning konteksiga qarab yoki uning ma‘nosidan kelib chiqqan holda tarjima qilish yoki muqobil variantini olgan holda tarjima qilish kerak. Shuning uchun ham tarjima jarayonida so‘zma-so‘z tarjima usulidan foydalanilmaydi, ma‘nosidan kelib chiqqan holda asliyat tilidan o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilinadi⁵.

Tarjimaning birlamchi sharti til bilish bo‘lsa-da, tarjima uchun faqat shuning o‘zigina kifoya qilmaydi. Matnning mazmuni, muallifning maqsadini tushunish va boshqa tilda ifodalab berish uchun ko‘pincha tildan tashqari ham ancha-muncha narsalarni bilishga to‘g‘ri keladiki, bu g‘ayrilisoniy omillar deyiladi. Binobarin, tarjimaning faqat til bilan bog‘liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o‘tgan, tildan tashqari muammolari g‘ayri lisoniy muammolar hisoblanadi⁶.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjima muammolari (maqolalar to‘plami). – Toshkent: Samarqand, 1991.

Axborot manbalari:

1. <http://worldlyjournals.com>
2. <http://nauchniyimplus.ru>
3. <https://talqinvatadqiqotlar.uz>
4. <https://scienceweb.uz>.

⁴ <http://worldlyjournals.com>

⁵ <https://talqinvatadqiqotlar.uz>

⁶ <http://nauchniyimplus.ru>

DEVELOPING LISTENING SKILLS FOR ACADEMIC PURPOSES

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek. The faculty of psychology, the department of Foreign languages: Philology and teaching languages: English

Scientific advisor:

Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi

Student of group 103-23:

Normamatova Farangiz Tohir qizi

Abstract: Effective listening skills are essential for academic success, enabling students to comprehend lectures, participate in discussions, and retain critical information. This article explores the importance of academic listening and identifies common challenges, such as understanding technical terminology, managing diverse accents, and maintaining focus. Strategies for improvement include active listening, vocabulary building, note-taking, exposure to varied speaking styles, and leveraging technology. Practical exercises like dictation, summarizing, and shadowing are recommended, along with tips for sustaining concentration during extended sessions. By implementing these techniques, students can enhance their listening abilities, leading to better academic performance and long-term benefits in learning and communication.

Keywords: Academic listening skills, Active listening, Note-taking strategies, Vocabulary building, Listening challenges, Focus in learning, Accent comprehension, Educational technology, Listening exercises, Academic success.

Developing Listening Skills for Academic Purposes

Listening skills are vital for academic success, particularly in environments that require the comprehension of lectures, discussions, and multimedia resources. Effective listening goes beyond merely hearing words; it involves understanding, analyzing, and applying the information received. Below is a comprehensive guide to developing listening skills tailored for academic purposes.

